O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi


BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligida korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etish hamda “Korrupsiyadan holi” muhitni yaratish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yichaYO‘L XARITA ijrosi yuzasidan

MA’LUMOT

Toshkent-2025-y.

Bilim va malakalarni baholash agentligida korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etish hamda “Korrupsiyadan holi” muhitni yaratish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yichaYO‘L XARITASI




“Келишилди”
Ўзбекистон Республикаси
Бош прокурори ўринбосари
аппарат катта маслаҳатчиси
_____ Ш.Ж.Тўхтабоев
“___” апрель 2025 йил

“Тасдиқлайман”
Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги
Билим ва малакаларни баҳолаш агентлиги директори
_____ М.М.Каримов
“___” апрель 2025 йил

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Билим ва малакаларни баҳолаш агентлигида коррупциявий омилларни аниқлаш ва бартараф этиш ҳамда “Коррупциядан холи” муҳитни яратиш борасида аниқ чора-тадбирларни амалга ошириш бўйича

ЙЎЛ ХАРИТА

Т/р	Коррупциявий хавфларни олдини олиш тадбирлари ва уларни амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Масъул ижрочилар	Молиялаштириш манбаси
1.	Билим ва малакаларни баҳолаш агентлиги ходимлари орасида фидойилик ҳамда коррупцияга қарши курашида ҳамжиҳатликни ошириш, коррупцияга қарши курашни бўйича мутасадди шахслик ва ҳуқуқлар ходимларини жалб этган ҳолда давра суҳбатларини ташкил этиш.	Ҳар чоракда	Коррупцияга қарши курашни тизимига масъул, Тармоқий бўлинмалар	Маблағ талаб этилмайди
2.	Билим ва малакаларни баҳолаш агентлигининг расмий ixbmb.uz сайтида ташкил қилинган “Халқ фикри” хизмати орқасидан келиб тушган мурожаатларни таҳлил қилиш.	Ҳар чорак якунида	Директор ўринбосари, Коррупцияга қарши курашни тизимига масъул, Тармоқий бўлинмалар	Маблағ талаб этилмайди
3.	Олий ўқув юртларига ташриф буюрган ташкилотларнинг, шифокорларнинг ижодидаги мақолалар ёритилган ташкилотлардан келиб чиқиб тақсимланишини, комиссия таркибини ташкил.	2025 йил Жадвал асосида	Директор ўринбосари, Коррупцияга қарши курашни тизимига масъул	Маблағ талаб этилмайди
4.	Товар сотиб олиш, давлат хизматларини кўрсатиш ёки давлат харидларида контрагентларни танлашни жараёнида манфаатлар тўқнашувини қатъий назоратга олиш.	Доимий	Коррупцияга қарши курашни тизимига масъул, Ишлар бошқарувчиси, Бош ҳисобчи	Маблағ талаб этилмайди
5.	Тўғридан-тўғри сотиб олинадиган товар ва хизмат турлари бўйича таклифларни ишлаб чиқиш.	2025 йил май	Директор ўринбосари, Ишлар бошқарувчиси, Бош ҳисобчи	Маблағ талаб этилмайди
6.	Давлат харидларида сотиб олинадиган товар ва хизматлар нархи ўртача бозор нархидан ошмаслигини қатъий назорат қилиш.	Доимий	Директор ўринбосари, Коррупцияга қарши курашни тизимига масъул, Ишлар бошқарувчиси, Бош ҳисобчи	Маблағ талаб этилмайди
7.	Билим ва малакаларни баҳолаш агентлигининг марказий аппарат ходимини Комплекс назорат тизимига масъул этиб белгилаш.	2025 йил 4 апрелга қадар	Директор ўринбосари, Инсон ресурсларини ривожлантириш ва бошқариш бўйича мутахассиси	Маблағ талаб этилмайди
8.	Бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобидан олинаётган товарлари тартибга солиш, асосий воситаларни харид қилиш бўйича таклифларни қайта кўриб чиқиш ва оптималлаштириш.	2025 йил апрель-май	Директор ўринбосари, Ишлар бошқарувчиси, Бош ҳисобчи	Маблағ талаб этилмайди
9.	Билим ва малакаларни баҳолаш агентлигида коррупциявий ҳолатларни олдини олишга кўмаклашган ходимларни рағбатлантириш ва уни амалиёти ходимларни жалб жавобгарликка тортиш тизимини яратиш.	2025 йил июнь	Бош юрисконсульт, Коррупцияга қарши курашни тизимига масъул	Маблағ талаб этилмайди
10.	Агентлик томонидан ўтказиладиган интервьюларга жалб этиладиган гуруҳ вакилларини танлаб олиш	2025 йил ноябрь	Ахборот-коммуникация технологияларини жорий	Маблағ талаб этилмайди



Т/р	Коррупциявий хавфларни олдини олиш тадбирлари ва уларни амалга ошириш механизми	Ижро муддати	Масъул ижрочилар	Молиялаштириш манбаси
	тизимини рақамлаштириш.		этиш ва рақамлаштиришни бошқармаси	
11.	“Виртуал мирзо” ахборот тизимини доимий такомиллаштириб бориш.	Доимий	Ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш ва рақамлаштириш бошқармаси	Маблағ талаб этилмайди
12.	Билим ва малакаларни баҳолаш агентлигининг функционал вазифаларини бажаришда сунъий интеллект элементларидан фойдаланиш, тест жараёнлари конфиденциал таъминлаш, шаффофликни ошириш бўйича таклифлар тайёрлаш ва Илмий-методик кенгаш мухокамасига киритиш.	2025 йил декабрь	Ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш ва рақамлаштириш бошқармаси, Тест синовларини ташкил этиш ва мувофиқлаштириш бошқармаси	Маблағ талаб этилмайди
13.	Аҳолига давлат хизматларини кўрсатишда, аҳолит сифатини баҳолаш механизмини ишлаб чиқиш, тегишли таклифларни Илмий-методик кенгаш мухокамасига киритиш.	2025 йил сентябрь	Ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш ва рақамлаштириш бошқармаси, Тест синовларини ташкил этиш ва мувофиқлаштириш бошқармаси	Маблағ талаб этилмайди
14.	Коррупцияга қарши олиб борилаётган ишларни ахборотлаштириш аппарат йиғилишларида муҳокама этиб, аниқланган камчиликларни бартараф этиш чораларини кўриб бориш.	Ҳар ярим йилда	Директор ўринбосари, Коррупцияга қарши курашни тизимига масъул	Маблағ талаб этилмайди
15.	Умумтаълим фанларидан якуний сертификат тест синовлари бўйича партияни асосида жалб қилинган ташқи экспертлар билан аниқ баҳолаш тизимида шаффофлик ва хавфсизликни таъминлашга оид онлайн	Ҳар ярим йилда	Коррупцияга қарши курашни тизимига масъул, Тест технологияларини	Маблағ талаб этилмайди
	Таҳлил натижаларига кўра тартиб-қоидаларни бузган ташқи экспертлар билан шартномани бекор қилиш.		бошқармаси	
16.	Чет тилини билиш даражасини аниқлаш тест синовлари бўйича партияни асосида жалб қилинган ташқи экспертлар билан аниқ баҳолаш тизимида шаффофлик ва хавфсизликни таъминлашга оид онлайн ва оффлайн сеанслар ўтказиш ҳамда таҳлил қилиш. Таҳлил натижаларига кўра тартиб-қоидаларни бузган ташқи экспертлар билан шартномани бекор қилиш.	Ҳар ярим йилда	Коррупцияга қарши курашни тизимига масъул, Чет тилларини билиш ва этиллаш даражасини баҳолаш бошқармаси	Маблағ талаб этилмайди
17.	Агентлик томонидан ўтказиладиган интервью жараёнларида инсон омилини камайтириш, шаффофлик ва хавфсизликни ошириш даражасида таъминлаш мақсадида электрон интервьюлар сонини босқичма-босқич ошириш.	2025 йил октябрь	Ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш ва рақамлаштириш бошқармаси, Тест синовларини ташкил этиш ва мувофиқлаштириш бошқармаси	Маблағ талаб этилмайди

Oliy va kasbiy ta’lim muassasalariga qabul uchun o‘tkazilgan test sinovlari yakuni bo‘yicha MA’LUMOT

2025/2026 o‘quv yili uchun oliy va kasbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun test sinovlari respublika bo‘yicha **65 ta katta sig‘imli binoda 14-23-iyul** kunlari kunlik **2 smenada** (**1-smena** soat **08.00-11.00**; **2-smena 15.00-18.00**) o‘tkazildi.

Test sinovlarida ishtirok etishi belgilangan **670 454 nafar** abituriyentning **614 091 nafari** (91,6 %) test sinovida **qatnashdi, 56 297 nafari** (8,4 %) test sinovlarida **qatnashmadi.**

Test sinovlari davrida **66 nafar** abituriyent tartib-qoidalarni buzganligi uchun chetlashtirildi:

31 nafari hududga kirishda; **35 nafari** test sinovi jarayonida.

Jarayonni betalofat o‘tkazish uchun **1 637 nafar** Ichki ishlar organlari, **534 nafar** Milliy gvardiya, **238 nafar** Favqulodda vaziyatlar hamda **196 nafar** Sog‘liqni saqlash tizimi xodimlari jalb etildi.

Raqamli texnologiyalar vazirligi va Ichki ishlar vazirligi huzuridagi “Xavfsiz shahar” tizimlarini rivojlantirish markazi tomonidan **65 ta katta sig‘imli binolarda 155 ta** shaxsni aniqlovchi, **1413 ta** statsionar va **92 ta** aylanma (PTZ) kameralari bilan jihozlandi.

Agentlik direktorining 2025-yil 26-iyundagi 01-410-son buyrug‘iga asosan 2025/2026-o‘quv yilida davlat oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha test sinovlariga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish jarayonlarini tashkil etish hamda test materiallarining maxfiyligini ta’minlash uchun test materiallari bilan ishlashga mas’ul xodimlar, fan ekspertlari va jalb etilgan yordamchi ishchilar faoliyati 2025-yil 30-iyundan 31-avgustga qadar bosqichma-bosqich yopiq ish rejimida ishlashga o‘tkazildi.

Yopiq ish rejimi jarayonida **13 nafar** Davlat xavfsizligi xodimlari, **34 nafar** fan ekspertlari, **31 nafar** test materiallarini chop etish va shakllantirish uchun bosh mutaxassilar va yordamchi ishchi xodimlar, **20 nafar** Test sinovlari natijalarini hisoblash va natijalarni e’lon qilish bo‘yicha mutaxassis xodimlari jalb etildi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

BUYRUQ

2025-yil 26-iyun № 01-410-son Toshkent sh.

2025/2026-o‘quv yilida davlat oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’limga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha o‘tkaziladigan test sinovlariga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayonida test materiallari bilan ishlashga mas’ul xodimlar va fan ekspertlari faoliyatini yopiq ish rejimida ishlashga o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-maydagi “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini taqsimlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” PF-581-son Farmonida belgilangan vazifalar (proton o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash hamda 2025/2026-o‘quv yilida davlat oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha test sinovlariga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish jarayonlarini tashkil etish hamda test materiallarining maxfiyligini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. 2025/2026-o‘quv yilida davlat oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha test sinovlariga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish jarayonlarini tashkil etish hamda test materiallarining maxfiyligini ta’minlash uchun test materiallari bilan ishlashga mas’ul xodimlar, fan ekspertlari va jalb etilgan yordamchi ishchilar faoliyati **2025-yil 30-iyundan 31-avgustga qadar** bosqichma-bosqich yopiq ish rejimida ishlashga o‘tkazilsin.

2. Yopiq ish rejimida ishlashga o‘tkazilgan mas’ul xodimlar va fan ekspertlari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Test texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i Z.Obidjonov, Umumta’lim fanlari bo‘yicha test topshiriqlarini shakllantirish bo‘limi boshlig‘i A.Jalgasimov, Test topshiriqlari banki bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i D.Mirzoev, Test materiallarini shakllantirish va chop etish bo‘limi boshlig‘i B.Rahimjon va Test sinovi natijalarini hisoblash va tahlil qilish bo‘limi boshlig‘i M.Mo‘minovga yopiq ish rejimida ishlashga o‘tkazilgan













1-band Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlari orasida fidoyilik hamda korrupsiyaga qarshi kurashishda hamjihatlikni oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mutasaddi vazirlik va idoralar xodimlarini jalb etgan holda davra suhbatlarini tashkil etish.











2025-yil 17-iyun kuni Bilim va malakalarni baholash agentligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2025-yil 5-mart kuni bo‘lib o‘tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy kengash yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida xodimlarning iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va siyosiy bilimlarini oshirishga qaratilgan o‘quv seminari tashkil etildi. Seminar davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimi Ravshan Yuldashev tomonidan mavzuga oid tushuntirish va ma’ruzalar taqdim etildi.

Agentlik direktori M.Karimov rahbarligida Agentlik markaziy apparati hamda hududiy bo‘limlar xodimlari ishtirokida 2025–2026-o‘quv yili uchun oliy va professional ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha test sinovlarini yuqori saviyada o‘tkazishni ta’minlashga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Test sinovlarini amaldagi tartib-qoidalarga qat’iy rioya etgan holda, xavfsiz, adolatli va shaffof tarzda tashkil etish bo‘yicha mas’ul xodimlarga aniq topshiriq va ko‘rsatmalar berildi.

2-band Bilim va malakalarni baholash agentligining rasmiy uzbmb.uz saytida tashkil qilingan “Xolis fuqaro” xizmati yuzasidan kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish.

Bilim va malakalarni baholash agentligning uzbmb.uz rasmiy saytida xolis fuqaro xizmati ish faoliyatida bo‘lib, 2025-yil hisobot davrida fuqarolar tomonidan murojaatlar kelib tushmagan.




3-band Tovar sotib olish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish yoki davlat xaridlarida kontragentlarni tekshirish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvini qat’iy nazoratga olish.

Agentlikda tovar va xizmatlarni xarid qilish, shuningdek davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonlarida kontragentlar bilan hamkorlikda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish maqsadida belgilangan ichki nazorat tizimi doimiy ravishda amalga oshirilmoqda.

Joriy hisobot davrida kontragentlar bilan tuzilgan shartnomalar huquqiy va moliyaviy jihatdan to‘liq o‘rganildi, ularda manfaatlar to‘qnashuvi holatlari kuzatilmadi. Ma’lumotlar Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining **e-anticor.uz** platformasiga har chorakda yuklanib borilmoqda.

Nazorat tadbirlari davomiy ravishda amalga oshirilib borilmoqda.




4-band To‘g‘ridan-to‘g‘ri sotib olinadigan tovar va xizmat turlari bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish.

2025-yil Agentlik ehtiyojlaridan kelib chiqib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma asosida xarid qilinishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar ro‘yxati shakllantirildi. Ushbu takliflar amaliy faoliyatda shaffoflikni ta’minlash hamda moliyaviy intizomga rioya qilish maqsadida ishlab chiqildi va ichki hujjat sifatida tasdiqlandi. Taklif etilayotgan tovar va xizmatlar turlari bozor sharoiti va Agentlik faoliyatiga mos holda tanlangan bo‘lib, ularni xarid qilishda belgilangan tartiblarga qat’iy amal qilinmoqda.

Shuningdek ushbu ma’lumotlar Agentlikning rasmiy uzbmb.uz saytining ochiq ma’lumotlar sahifasiga yuklangan.








7-band Bilim va malakalarni baholash agentligining markaziy apparat xodimini Komplayens nazorat tizimiga mas’ul etib belgilash.

2025-yil 2-aprel kuni Bilim va malakalarni baholash agentligi direktorining 01-219-son buyrug‘i asosida Test sinovlarini tashkil etish va nazorat qilish bo‘limi bosh mutaxassisi B.Sarimsakov Komplayens nazorat tizimiga mas’ul xodim sifatida rasmiy ravishda biriktirildi.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

BUYRUQ

2025-yil 2-aprel 01-219-son Toshkent sh.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi va Axborot xizmati vazifalarini bajarishga mas’ullarni biriktirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 13-martdagi 2/36-4/1-1796-son va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 14-fevraldagi 18/2-06-660-son xatlari asosida

BUYURAMAN:

1. Direktor maslahatchisi **Nurmatov Javlonbek Abdunabiyevich** Bilim va malakalarni baholash agentligida Axborot xizmati vazifasini bajarishga hamda Test sinovlarini tashkil etish va nazorat qilish bo‘limi bosh mutaxassisi **Sarimsakov Baxtiyor Raxmonjanovich** Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi vazifasini bajarishga mas’ul etib tayinlansin.

2. Buxgalteriya hisobi va moliya-iqtisod bo‘limi (S.Talipova) qo‘shimcha vazifalarni bajarishga mas’ul etib tayinlangan xodimlarga lavozim maoshining 30 foizi miqdorida ustama haq to‘lab borilishini ta’minlasin.

3. Bilim va malakalarni baholash agentligida Axborot xizmatiga mas’ul (J.Nurmatov)ga:

Bilim va malakalarni baholash agentligi faoliyati haqida jamoatchilikka doimiy ravishda ma’lumot berib borish, OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi tanqidiy-tahliliy materiallarga tezkor munosabat bildirish, jurnalistlar uchun matbuot anjumani, brifing, ochiq muloqot, press-tur va boshqa media-tadbirlar tashkil qilish, televideniye va radioga mo‘ljallangan tematik dasturlar tayyorlash vazifalari yuklansin.

4. Bilim va malakalarni baholash agentligida Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasiga mas’ul (B.Sarimsakov)ga:

Bilim va malakalarni baholash agentligida korrupsiyaning oldini olish hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga



chek qo‘yish, sohadagi ishlarni samarali tashkil etish, huquqbuzarliklarga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

Agentlikka yuklatilgan funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsion xavf xatarlarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish;

Agentlik xodimlarining kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilib borish vazifalarini yuklansin.


5. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Direktor **M.Karimov**

8-band Byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan olinayotgan tovarlarni tartibga solish, asosiy vositalarni xarid qilish bo‘yicha talablarni qayta ko‘rib chiqish va optimallashtirish.

2025-yil aprel–may oylari davomida Agentlikning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladigan xarid jarayonlari tanqidiy ko‘rib chiqildi. Jumladan, tovarlar va asosiy vositalarni xarid qilish bo‘yicha mavjud talablar tahlil qilinib, ularni amaliy ehtiyoj va moliyaviy maqsadga muvofiqlik nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish ishlari olib borildi. Natijada ortiqcha va samarasiz xarajatlarni kamaytirish, xarid jarayonini maqsadli va shaffof tashkil etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etilishi ko‘zda tutilmoqda.

Shuningdek ushbu ma’lumotlar Agentlikning rasmiy uzbmb.uz saytining ochiq ma’lumotlar sahifasiga yuklangan.



Бюджет жараёнини очиқлигини таъминлаш
мақсадида расмий веб-сайтларда маълумотларни
жойлаштириш тартиби тўғрисидаги низомга
2-ИЛОВА

2025- йил 1-чорагида
Ўзбекистон Республикаси Олий таълимфан ва инновациялар вазирлиги тузилмаси билан ва маҳаллаларни бюджетга ягоналаги ҳисобидан амалга оширилаётган
лойиҳаларнинг нархи тўғрисидаги
МАЪЛУМОТЛАР

Тр	Бунртмачи	Лойиҳанинг номланиши	Лойиҳа қуввати	Лойиҳани амалга ошириш даври	Ягона тўлиқ ҳисобланган		Лойиҳани амалга ошириш учун қийматлар (минг сўм)	шундан Ўзлаштирилган маблағлар (минг сўм)	Лойиҳани молиялаштириш манбаи (бюджет/ бюджетдан ташқари маблағлар)
					Ягона тўлиқ ҳисобланган	Корхона СТИРи			
1	Жиззах вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	Тест синовларини ўтказиш кўчмас мулкларни ҳисоб-китоб қилиш	17454501	2025 йил	Жиззах вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	204701955	17454501	867 804,1	
2	Қашқадарё вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	Тест синовларини ўтказиш кўчмас мулкларни ҳисоб-китоб қилиш	523623,6	2025 йил	Қашқадарё вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	204706710	17100000	3 348 934, 4	
							34 554 501	4 216 758,5	

*Изоҳ: Молиялаштириш манбаси аниқ кўрсатилиб. Молиялаштириш манбалари: Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети, Давлат мақсадли жамғармалари маблағлари, Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетини тақчиллигини қоплаш манбалари, бюджет маблағларини бюджетлараро тақсимлаш жамғармаларини маблағлари

Бюджет жараёнини очиқлигини таъминлаш
мақсадида расмий веб-сайтларда маълумотларни
жойлаштириш тартиби тўғрисидаги низомга
2-ИЛОВА

2025- йил 2-чорагида
Ўзбекистон Республикаси Олий таълимфан ва инновациялар вазирлиги тузилмаси билан ва маҳаллаларни бюджетга ягоналаги ҳисобидан амалга оширилаётган
лойиҳаларнинг нархи тўғрисидаги
МАЪЛУМОТЛАР

Тр	Бунртмачи	Лойиҳанинг номланиши	Лойиҳа қуввати	Лойиҳани амалга ошириш даври	Ягона тўлиқ ҳисобланган		Лойиҳани амалга ошириш учун қийматлар (минг сўм)	шундан Ўзлаштирилган маблағлар (минг сўм)	Лойиҳани молиялаштириш манбаи (бюджет/ бюджетдан ташқари маблағлар)
					Ягона тўлиқ ҳисобланган	Корхона СТИРи			
1	Жиззах вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	Тест синовларини ўтказиш кўчмас мулкларни ҳисоб-китоб қилиш	18 454 478,80	2025 йил	Жиззах вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	204701955	4 280 467,20	3326723,9	
2	Қашқадарё вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	Тест синовларини ўтказиш кўчмас мулкларни ҳисоб-китоб қилиш	19 523 415,10	2025 йил	Қашқадарё вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	204706710	11 786 628,90	5 131 642,80	
3	Тошкент вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	Тест синовларини ўтказиш кўчмас мулкларни ҳисоб-китоб қилиш	20 402 414,10	2026 йил	Тошкент вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	308618576	8 927 591,00	3 091 344,50	
4	Фарғона вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	Тест синовларини ўтказиш кўчмас мулкларни ҳисоб-китоб қилиш	956 682,70	2025 йил	Фарғона вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	204818356	5 фаолият кафолат суммаси 956 682,7	956 682,70	
5	Наманган вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	Тест синовларини ўтказиш кўчмас мулкларни ҳисоб-китоб қилиш	910 693,30	2025 йил	Наманган вилояти ихтисослаштирилган комиссияси	204808298	5 фаолият кафолат суммаси 910 693,3	910 693,30	
							16 847 096	4 216 758,5	

9-band Bilim va malakalarni baholash agentligida korrupsiyaviy holatlarni oshkor etishga ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish va uni yashirgan xodimlarni jiddiy javobgarlikka tortish tizimini yaratish.

Bilim va malakalarni baholash agentligi direktorining 01-05-son buyrug‘iga asosan Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan Agentlik xodimlarini rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida NIZOM ishlab chiqilib tasdiqlangan.

2025-yilning hisobot davri mobaynida Agentlikda korrupsiyaviy holatlarni oshkor etish yoki uni yashirish bilan bog‘liq holatlar qayd etilmadi. Shu munosabat bilan mazkur chora-tadbir bo‘yicha amaliy holat yuz bermagan va javobgarlik choralari qo‘llanilmagan.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

BUYRUQ

2025-yil 3-yanvar 01-05-son Toshkent sh.

Bilim va malakalarni baholash agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

Bilim va malakalarni baholash agentligi tizimida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini ta’minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu yo‘nalishda qo‘shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlarini rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasiga mas’ul (B.G‘aniyev) va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘yicha bosh mutaxassis (B.Komilov) “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlarini rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida” Nizomning mazmun va mohiyatini xodimlarga tushuntirish ishlarini amalga oshirsin.

3. Mazkur buyruq ijrosining nazorati direktor o‘rinbosari F.Mirzayev zimmasiga yuklansin.

Direktor **M.Karimov**



Bilim va malakalarni baholash agentligining 2025-yil 3-yanvardagi 01-05-son buyrug‘iga ilova

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlarini rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan Bilim va malakalarni baholash agentligi xodimlarini rag‘batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish — tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq qidiruv e’lon qilingan shaxslarni topishda yordam ko‘rsatish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashish - korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilish va uni fosh etishda ahamiyatga ega bo‘lgan dalillar haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish yoki bunday toifadagi jinoyatlarni tergov qilish yoxud tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda bevosita ko‘maklashish;

korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar - O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 611, 1931 va 1932-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

korrupsiyaga oid jinoyatlar - O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi «g» bandi, 168-moddasining uchinchi qismi «v» bandi, 1929 va 19210, 205, 209 - 214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar;

korrupsiyaga oid jinoyatlarni aniqlash va fosh etish bilan bog‘liq tezkor-qidiruv tadbirlarini hamda protsessual harakatlarni amalga oshiruvchi organlar (keyingi o‘rinlarda - korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar) - O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

4. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirishning (keyingi o‘rinlarda — rag‘batlantirish) asosiy vazifalari hisoblanadi:

jamiyatda korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash;

korrupsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta’minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

aholining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo‘shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

5. Rag‘batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, xodimlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy

10-band Agentlik tomonidan o‘tkaziladigan imtihonlariga jal etilgan guruh nazoratchilarini tanlab olish tizimini raqamlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibini yana-da takomillashtirish to‘g‘risida” 2018 yil 3 apreldagi 261-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, Bilim va malakalarni baholash agentligi Ilmiy-metodik kengashining 2024 yil 31 oktyabrdagi 8-son majlis qarori bilan Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlari uchun guruh nazoratchilarini tayyorlash va saralab olish tartibi tasdiqlangan. Mazkur tartib asosida joriy yidagi guruh nazoratchilari tanlovi 2 bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda, **1778 nafar** talabgor guruh nazoratchiligiga nomzod sifatida onlayn ro‘yxatdan o‘tib, ulardan **1555 nafari (87,4 %)** bilan belgilangan tartibda shartnomalar tuzildi, **223 nafari** suxbat jarayoniga kelmadi.

Ikkinchi bosqichda, 2025-yil 6-8-may kunlari saralashning saralashning suhbat bosqichi o‘tkazilib, unda **1925 nafar** nomzoddan **1852 nafari (96,2%)** ishtirok etdi, **73 nafari** turli sabablarga ko‘ra jarayonda qatnashmadi.

Test sinovlarini adolatli va shaffof o‘tkazish uchun **65 nafar** bino rahbari, **3 011 nafar guruh nazoratchisi** hamda eshitish va nutqida nuqsoni bo‘lgan abituriyentlar bilan ishlash uchun **98 nafar surdotarjimon** jalb etildi.

11-band “Virtual markaz” axborot tizimini doimiy takomillashtirib borish.

Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlarini baholash tizimi my.gov.uz platformasining xizmat ko‘rsatish sahifasida mavjud.

Shuningdek,

1.https://my.gov.uz/uz/service/259

2.https://my.gov.uz/uz/service/559

3.https://my.gov.uz/uz/service/891

4.https://my.gov.uz/uz/service/210

5.https://my.gov.uz/uz/service/543

Ushbu tizim ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash bilan birga, aholining fikr-mulohazalari asosida xizmatlarni yana-da takomillashtirishga xizmat qilib kelmoqda.





Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish, sohada inson omilini qisqartirish, xususan, raqamlashtirish bo‘yicha takliflar.

Sohadagi muammo va kamchiliklar	Muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha asoslantirilgan takliflar
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.01.2023-yildagi PF-14-son “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi negizida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tashkil etildi. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuriga o‘tganligi sababli, ayrim shtatlar, jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘linmalari (lavozimlari) qisqartirilgan. Ammo hozirda Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimiga mac’ul belgilangan.	Bilim va malakalarni baholash agentligida Ichki audit va Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari alohida shtat asosida tashkil etilishi lozim.

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA QABUL QILINGAN ICHKI IDORAVIY HUJJATLAR



Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati



Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM



Odob-axloq qoidalari



Agentlikda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha NIZOM



Agentlikda kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnoma



Agentlikning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash USLUBIYOTI



Xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari otkazish bo‘yicha Reglamenti



Agentlikka aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish REGLAMENTI



Xodimlarni etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha YO‘RIQNOMA



Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma



Korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillarining samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti

AGENTLIKNING QOIDABUZARLIKLAR HAQIDA MA`LUM QILISH UCHUN MAVJUD ALOQA KANALLARI



95-199-19-14



https://gov.uz/oz/uzbmb/activity_page/anticor@uzbmb.uz



@bmbaanticor_bot



https://uzbmb.uz/page/reception



ETIBORINGIZ UCHUN RAHMAT